



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 <sup>23</sup> yil "19" „сентябрь“

231  
№ \_\_\_\_\_

Toshkent sh.

### 2023/2024 o'quv yilida klinik ordinatura yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri - davlat komissiyasi raisi A.Aripovning 2023 yil 5 sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi majlisining 46-9-son bayonida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi majlisining 46-9-son bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2023/2024 o'quv yilida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlarida klinik ordinatura va internatura mutaxassisliklari bo'yicha kirish imtihonlari **bir bosqichli test sinovlari** asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkazilishi **inobatga olinsin.**

3. Quyidagilar:

2023/2024 o'quv yilida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, test topshiriqlari soni hamda baholash mezonlari **1-ilovaga** muvofiq;

klinik ordinatura yo'nalishlari bo'yicha test topshiriqlarini shakllantiruvchi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tavsiya etilgan fan ekspertlari guruhi **2-ilovaga** muvofiq;

klinik ordinaturaga kirish test sinovlariga foydalaniladigan test variantlari tafsilotlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi (O'.Ismailov):

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan hamkorlikda klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha test sinovlarini yuqori saviyada o'tkazilishini;

test sinovi qatnashuvchilar bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlarni sifatli tayyorlab belgilangan tartibda Bilim va malakalarni baholash agentligiga yetkazilishini ta'minlasin.

5. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari:

test sinovlarini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan shartnoma rasmiylashtirsin;

klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha test sinovlari topshiradigan talabgorlarni belgilangan muddatda test sinovlarida ishtirok etishini ta'minlasin;

har bir talabgor uchun bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari miqdoridagi to'lov tegishli tashkilotlar tomonidan to'lab berilsin.

6. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi (F.Sanaev) 2023/2024 o'quv yilida klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha test sinovlari o'tkazilishi tartibi bo'yicha ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali talabgorlar ularning otalari va keng jamoatchilikka yetkazilishi ta'minlansin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari A.Shadmanov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir o'rinbosari**



**F.Sharipov**

**2023/2024 o'quv yilida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari klinik ordinatura yo'nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, test topshiriqlari soni hamda baholash mezonlari**

| Fanlar nomi                                                                                                               | Test topshiriqlari soni | Baholash mezonlari | Maksimal ball |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|--------------------|---------------|
| <b><i>“Davolash ishi” ta'lim yo'nalishiga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo'yicha</i></b>            |                         |                    |               |
| Terapiya                                                                                                                  | 33                      | 1.33 ball          | 43,89 ball    |
| Xirurgiya                                                                                                                 | 33                      | 0.9 ball           | 29,7 ball     |
| Akusherlik va ginekologiya                                                                                                | 33                      | 0.8 ball           | 26,4 ball     |
| <b>Jami:</b>                                                                                                              | <b>99</b>               |                    | <b>99,99</b>  |
| <b><i>“Tibbiy profilaktika ishi” ta'lim yo'nalishiga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo'yicha</i></b> |                         |                    |               |
| Epidemiologiya                                                                                                            | 33                      | 1.33 ball          | 43,89 ball    |
| Mehnat gigienasi                                                                                                          | 33                      | 0.9 ball           | 29,7 ball     |
| Bolalar va o'smirlar gigienasi                                                                                            | 33                      | 0.8 ball           | 26,4 ball     |
| <b>Jami:</b>                                                                                                              | <b>99</b>               |                    | <b>99,99</b>  |
| <b><i>“Tibbiy biologiya ishi” ta'lim yo'nalishiga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo'yicha</i></b>    |                         |                    |               |
| Laboratoriya ishi                                                                                                         | 33                      | 1.33 ball          | 43,89 ball    |
| Mikrobiologiya                                                                                                            | 33                      | 0.9 ball           | 29,7 ball     |
| Tibbiy va biologik kimyo                                                                                                  | 33                      | 0.8 ball           | 26,4 ball     |
| <b>Jami:</b>                                                                                                              | <b>99</b>               |                    | <b>99,99</b>  |
| <b><i>“Pediatriya ishi” ta'lim yo'nalishiga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo'yicha</i></b>          |                         |                    |               |
| Pediatriya                                                                                                                | 33                      | 1.33 ball          | 43,89 ball    |
| Bolalar xirurgiyasi                                                                                                       | 33                      | 0.9 ball           | 29,7 ball     |
| Terapiya                                                                                                                  | 33                      | 0.8 ball           | 26,4 ball     |
| <b>Jami:</b>                                                                                                              | <b>99</b>               |                    | <b>99,99</b>  |

| <i>“Stomatologiya” ta’lim yo’nalishiga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo’yicha</i> |           |           |              |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|-----------|--------------|
| Terapevtik stomatologiya                                                                                | 33        | 1.33 ball | 43,89 ball   |
| Ortopedik stomatologiya                                                                                 | 33        | 0.9 ball  | 29,7 ball    |
| Jarrohlik stomatologiya                                                                                 | 33        | 0.8 ball  | 26,4 ball    |
| <b>Jami:</b>                                                                                            | <b>99</b> |           | <b>99,99</b> |